ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Mahmudova Dilafruz

Nordik xalqaro universiteti,

Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrasi

Dotsenti

dilafruzmakhmudova1974@gmail.com 90-389-49-69

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOT KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini yoritiladi. Muloqot ko'nikmalari bolalarning ta'lim tizimiga moslashuvi, maktab ta'limiga samarali tayyorlanishi va shaxs sifatida rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha katta yosh davrida bolalarda lug'at boyligini yuksaltirish, muloqotga kirishish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning ijtimoiy hayot talablariga moslashuvchanligini ta'minlash bugungi kunda ahamiyatli masalalardan biridir. Tadqiqotda bolalarda muloqot ko'nikmasini rivojlantirishning ijtimoiy, didaktik va innovatsion yondashuvlariga asoslangan metodlari va ularning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, bu jarayonning davlat talablariga mos ravishda amalga oshirilishi muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha katta yosh, muloqot ko'nikmasi, nutqiy rivojlanish, muloqot qobiliyati, ijtimoiy moslashuv, lug'at boyligi, ta'lim islohotlari, didaktik yondashuv.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс развития навыков общения у детей дошкольного возраста. Коммуникативные навыки являются важным фактором для адаптации детей к системе образования, успешной подготовки к школьному обучению и формирования их как личности. В старшем дошкольном возрасте особое значение имеет обогащение словарного запаса, формирование умений вступать в общение, а также обеспечение их адаптивности к требованиям социальной жизни. В исследовании проанализированы методы развития коммуникативных навыков у детей, основанные на социальных, дидактических и инновационных подходах, а также их значимость. Кроме того, подчеркивается важность реализации данного процесса в соответствии с государственными требованиями..

Ключевые слова. Старший дошкольный возраст, навык общения, речевое развитие, коммуникативная способность, социальная адаптация, лексический запас, образовательные реформы, дидактический подход.

Annotation. This article highlights the process of developing communication skills in preschool-aged children. Communication skills are an important factor for children's adaptation to the education system, effective preparation for school education, and personal development. In the senior preschool age, enriching children's vocabulary, developing their ability to engage in communication, and ensuring their adaptability to the demands of social life are among the key issues today. The study analyzes methods for developing communication skills in children based on social, didactic, and innovative approaches, as well as their significance. Additionally, the importance of implementing this process in accordance with state requirements is emphasized.

Keywords. Senior preschool age, communication skills, speech development, communicative ability, social adaptation, vocabulary enrichment, educational reforms, didactic approach.

Kirish. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni kompleks rivojlantirishda ularning sensor tarbiyasi muhim ahamiyatga ega. Sensor jarayonlarning samarali rivojlanishi, voqelikni aniq va to‘liq aks ettirishni ta’minlaydi, bu esa sezgi va idrokning darajasi bilan bog‘liqdir. Xissiy bilish bu yoshdagi bolalar uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, fikrlash va nutq kabi mantiqiy bilish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Sensor rivojlanish esa bolalarning amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zarur shart hisoblanadi.

Muloqot ko’nikmasi, ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib, uni bolalarda rivojlantirish uchun didaktik tamoyillar va innovatsion yondashuvlarga asoslangan tizimli jarayon talab etiladi. Davlat talablarida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning rivojlanish kompetensiyalarida muloqotchanlik layoqati alohida mezon sifatida ko‘rsatilgan. Butun dunyoda, shuningdek, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarni kompleks rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga tayyorlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Nutq faoliyatini rivojlantirish, so‘z zaxirasini kengaytirish, katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar asosida muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi asosiy vazifalar belgilangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Samarali muloqot qilish qobiliyati, bolalar ta'limining muhim qismi bo‘lib, maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi nafaqat nutqiy faoliyatni rivojlantirish, balki ular orasida o‘zaro muloqot o‘rnatish va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash uchun zarurdir. Ushbu soha bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar va metodologik adabiyotlar mavjud. Xususan, A.T.Makarova, Y.V.Yusupov, B.S.Gorshkova, N.S.Polivodaning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor sanaladi. Shuningdek, T.T.Shirinova zamonaviy texnologiyalar asosida bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish metodlarini taklif qiladi. Tadqiqotchi L.I.Perlmutter bog’cha yoshidagi bolalarda muloqot layoqatini shakllantirishda psixologik bilimlarning rolini alohida e’tiborga oladi. Shuningdek, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda o‘ziga xos dasturlarning rolini ham e’tirof etish lozm. Masalan, Fin yondashuviga ko‘ra, bolalarni guruhda ishlashga, ijodiy fikrlashga va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish orqali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat qaratiladi. Bolalarga o‘z fikrini bildirish va hurmat bilan tinglashni o‘rgatish uchun maxsus metodikalar ishlab chiqilgan. Reggio Emilia yondashuvi (Italiya) orqali bolalarning ijodiy nutqini rivojlantirish, ular o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash va atrof-muhit bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsad qilinadi.

Muloqot qobiliyatlarini shakllantirish turli metodlar – o‘yinlar, sensor tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, axloqiy va madaniy yondashuvlar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Har bir metod bolaning yoshiga, qiziqishlariga va ehtiyojlariga mos ravishda tanlanishi kerak. Ushbu yondashuvlarning uyg‘unlashuvi bolalarni maktab hayotiga muvaffaqiyatli tayyorlaydi va ularning ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi adabiyotlar va tadqiqotlar bolalar bilan ishlashda samarali metodlar va yondashuvlarni ishlab chiqishda metodologik asos vazifasini bajarishi mumkin.

Natijalar va tahlil.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarni rivojlantirish uchun eng muhim omil bu fikrlash va nutqning uyg'un rivojlanishi hisoblanadi. Tadqiqotchi A.T.Makarova nutqni rivojlantirish jarayonining bolaning umumiy intellektual rivojlanishiga ta'sirini o'rganib, nutq va fikrlashning bir-biriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Nutqning rivojlanishi orqali bola o'z fikrini ifodalash va boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilishni o'rganadi. Muallifning fikricha[4], nutqni rivojlantirish metodlari orasida o'yinlar, ertaklar, qo'shiqlar, muzika va hikoyalar orqali bolalarga to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalarini o'rgatish samarali usullardan hisoblanadi. Y.V.Yusupov sensor rivojlanishning kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rniga doir izlanishlarida bolalar sezgilari rivojlanishi orqali atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunib, ularni ifodalash qobiliyatini oshirishini ta'kidlaydi[10]. Darhaqiqat, sensor o'yinlar, rasm chizish va boshqa san'at shakllari bolalar uchun samarali vosita bo'lib, ular nafaqat tajriba, balki til va muloqotning samarali vositalarini ham o'zlashtirishga imkon yaratadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda muloqot qobiliyatini rivojlantirishda o'yin metodlarining rolini B.S.Gorshkovaning tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Muallif, o'yinlarning bolalar uchun ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ko'rib chiqib, o'yin yordamida bolalar o'zaro munosabatlarni, do'stlik va hamkorlikni o'rganishini ta'kidlaydi[1]. O'yinlar bolalarga o'z fikrlarini ifodalash, tinglash va boshqa bilan hamkorlikda ishlashni o'rgatadi. Shuningdek, bolalar uchun muloqotda madaniy, axloqiy va estetik nuqtai nazardan to'g'ri ko'rsatmalar berish ham muhimdir. N.S.Polivoda bolalarda axloqiy va estetik rivojlanishning kommunikativ kompetensiya bilan bog'liqligini tahlil qiladi[7]. Ular orqali bolalar o'zlarining va boshqalarining his-tuyg'ularini anglab, ularni to'g'ri ifodalashni o'rganadilar. Shu bois, bolalarga muloqot madaniyatini o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bolalarda muloqot kompetensiyalarning shakllanishida zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan, raqamli o'yinlar va interaktiv dasturlar samarali vosita bo'lishi mumkin. T.T.Shirinova o'z tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni haqida to'xtalib o'tadi[8]. Bu texnologiyalar bolalar uchun o'yinlar, interaktiv mashqlar va didaktik materiallar yordamida nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari olimlarni e'tiborini tortgan. Xususan, I.A.Bogdanova[3] maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, xususan interaktiv ta'lim vositalari va mobil ilovalar orqali bolalar bilan samarali muloqot o'rnatishning samarali usullarini ishlab chiqdi. Bu texnologiyalar bolalarga o'yin, hikoya, multfilm va boshqa shakllarda muloqot qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa bolalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Nutq rivojlanishi va kommunikativ kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish ko'plab ilmiy tadqiqotlarda muhim mavzu sifatida ko'rib chiqilgan. M.N.Shishova nutqni rivojlantirishning bolalarda muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritib beradi[9]. Uning fikriga ko'ra, nutq faolligini oshirish, o'z fikrini ifodalash va qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tushunish bolalarning ijtimoiy moslashuvini mustahkamlaydi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda nutqiy faoliyat, til o'yinlari, muloqot uchun o'yinlar va rolli syujetli, sahnalashtiriluvchi o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi.

Muloqot layoqatini rivojlantirishda psixologik-pedagogik jihatlar ham muhim ahamiyatga ega. L.I.Perlmutter bolalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda psixologik yondashuvlarning o'rni haqida yozadi[5]. U muloqotning ilk bosqichlaridan boshlab, bolaning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qilishda o'qituvchilarning o'rni katta ekanligini

ta'kidlaydi. Ularning ijobiy kommunikatsiya modeli, bolalar bilan muloqotda ochiq va samimiy yondashuv, bolaning o‘zini erkin ifodalashiga imkon yaratadi.

Sosial-madaniy o‘rganish metodi orqali muloqot ko’nikmasini rivojlantirish metodlari haqida bir qancha tadqiqotlar mavjud. Jumladan, Yu.N.Tikhomirova[5] bolalar muloqotini madaniy rivojlantirishda pedagoglarning roli haqida izlanishlar olib borgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun axloqiy, estetik va madaniy muloqotni o‘rgatishning metodik yondashuvlarini ishlab chiqish, ularning o‘zaro muloqotdagi ehtiyojlarini shakllantirishga yordam beradi.

O‘yin metodlari bolalarda muloqtmandlikni rivojlantirishda eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. E.B.Karpov o‘yinlarning bolalar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni shakllantirishda qanday ishlashini o‘rganib, o‘yin jarayonida bolaning nutqiy va muloqotga oid ko‘nikmalarining rivojlanishini ta'kidlaydi. O‘yin orqali bolalar o‘zaro munosabatlarni o‘rnatadi, jamoaviy faoliyatni o‘rganadilar va empatiya hissini rivojlantiradilar.

Xulosalar.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda muloqotmandlikni rivojlantirish ularning ijtimoiy va intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Nutq va fikrlash qobiliyatlarini uyg‘un rivojlantirish bolalarda samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning asosidir. O‘yin metodlari, rolli mashg‘ulotlar va sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalar o‘rtasida muloqot madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, interaktiv dasturlar va didaktik o‘yinlar bolalarning nutq va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutqni rivojlantirishda ertaklar, hikoyalar va ijodiy mashg‘ulotlar bolalarning muloqotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, psixologik-pedagogik yondashuvlar pedagoglarning ochiq va samimiy muloqoti orqali bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuvlar O‘zbekistonning maktabgacha ta’limni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturida belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Gorshkova, B.S. O‘yin metodlari va ta’lim. SP.: Akademiya, 2007. 312 b.
2. Karpov, E.B. O‘yin orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. T.: O‘qituvchi, 2011. 210 b.
3. Bogdanova, I.A. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlar. Tashkent: Ma’naviyat, 2020. 220 b.
4. Makarova, A.T. Nutq va fikrlashning rivojlanishi. M.: Pedagogika, 2003. 256 b.
5. Perlmutter, L.I. Psixologik-pedagogik yondashuvlar: nutq va muloqot. SP.: Akademiya, 2004. 245 b.
6. Tikhomirova, Yu.N. Sosial-madaniy o‘rganish metodlari. T.: Fan, 2008. 184 b.
7. Polivoda, N.S. Bolalarda axloqiy va estetik rivojlanish. T.: Ma’naviyat, 2010. 224 b.
8. Shirinova, T.T. Zamonaviy texnologiyalar yordamida kommunikativ kompetensiya. T.: O‘qituvchi, 2022. 150 b.
9. Shishova, M.N. Bola nutqining rivojlanishi va uning kommunikativ kompetensiya bilan bog‘liqligi. M.: Pedagogika, 2015. 160 b.
10. Yusupov, Y.V. Sensor rivojlanish va kommunikatsiya. T.: Fan, 2010. 198 b.